



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TA'JIRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Iloxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna Xolov Javlonbek Davronovich UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS	275
Imomov Inomiddin	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI.....	292
Djumonov Dilshod Safarolievich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	314
Sadikova Dildora Abdulla qizi	



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0009-7590-2950

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillari, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional va hududiy xususiyatlar tahlil qilingan. Hududning mavjud resurs salohiyati, davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda biznes muhitining rivojlanish tendensiyalari baholangan. Shuningdek, kichik va o'rta biznesning iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va hududiy rivojlanishdagi o'rni yoritilib, uni yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, Qoraqalpog'iston Respublikasi, tadbirkorlik, iqtisodiy omillar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, hududiy rivojlanish, biznes muhiti, institutsional mexanizm.

Аннотация: В статье исследованы экономические факторы поддержки малого и среднего бизнеса в Республике Каракалпакстан, а также институциональные и территориальные особенности, влияющие на развитие предпринимательской деятельности. Проведена оценка ресурсного потенциала региона, действующих механизмов государственной поддержки и современных тенденций развития предпринимательской среды. Особое внимание уделено роли малого и среднего бизнеса в обеспечении экономического роста, занятости населения и устойчивого территориального развития. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию системы поддержки малого и среднего бизнеса.

Ключевые слова: Малый и средний бизнес, Республика Каракалпакстан, предпринимательство, экономические факторы, государственная поддержка, региональное развитие, предпринимательская среда, институциональные механизмы.

Abstract: This article examines the economic factors influencing the support of small and medium-sized enterprises (SMEs) in the Republic of Karakalpakstan, focusing on institutional and regional aspects affecting entrepreneurial development. The study evaluates the region's resource potential, existing government support mechanisms, and current trends in the business environment. It also highlights the role of SMEs in promoting economic growth, employment, and sustainable regional development. Based on the findings, scientifically grounded recommendations are proposed to improve the support system and enhance the future development prospects of SMEs.

Keywords: Small and medium-sized enterprises, Republic of Karakalpakstan, entrepreneurship, economic factors, government support, regional development, business environment, institutional mechanisms.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kichik va o'rta biznes iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda aholi daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur sektorni davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga va investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham kichik va o'rta biznesni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib [1], tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining muhim



yo'nalishiga aylangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining tabiiy-iqtisodiy sharoiti, ekologik holati, resurs salohiyati va demografik xususiyatlari bilan mamlakatning boshqa hududlaridan ma'lum darajada farq qiladi. Ushbu omillar kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llashni, hududiy imkoniyatlar va mavjud muammolarni kompleks baholashni talab etadi. Shu bois mazkur hududda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillarini aniqlash, mavjud mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, kreditlash tizimi, investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli xizmatlardan foydalanish kabi iqtisodiy omillar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu omillarning hududiy xususiyatlardan kelib chiqib tahlil qilinishi kichik va o'rta biznes faoliyatining samaradorligini oshirish hamda uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillarini tahlil qilish, ularning hudud iqtisodiyotiga ta'sirini baholash hamda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari iqtisodiyot fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlar ushbu sohaning iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rnini turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilganlar.

Iqtisodchi olim Joseph Schumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, innovatsiyalarni joriy etuvchi tadbirkorlar yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishini ta'kidlaydi [6]. Uning nazariyasida kichik biznes innovatsion faoliyatni rivojlantirish va bozor raqobatini kuchaytirishda muhim subyekt sifatida e'tirof etiladi.

Michael Porter esa hududlarning raqobat ustunligini shakllantirishda biznes muhiti, infratuzilma sifati, malakali mehnat resurslari, innovatsion salohiyat va davlat siyosatining o'zaro uyg'unligini asosiy omil sifatida ko'rsatadi [5]. Olimning fikricha, kichik va o'rta biznesning samarali rivojlanishi qulay institutsional muhit va raqobatbardosh iqtisodiy makon mavjud bo'lgan sharoitda ta'minlanadi. Shu bois hududiy rivojlanish siyosatida davlat va xususiy sektor hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes iqtisodiyoti bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri David Storey tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni uch guruhga ajratadi: tadbirkorning shaxsiy salohiyati, korxonaning ichki imkoniyatlari va tashqi iqtisodiy muhit [8]. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, davlatning moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash choralari kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri Douglas North iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida samarali institutlarni e'tirof etadi [7]. Olimning fikricha, mulk huquqining ishonchli himoyasi, shaffof qonunchilik, samarali davlat boshqaruvi va ma'muriy to'siqlarning kamaytirilishi tadbirkorlik faolligini oshiruvchi eng muhim shartlar hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning muvaffaqiyati institutsional muhit sifati bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, William Baumol, Paul Romer va Robert Lucas kabi olimlar tadbirkorlik, inson kapitali va innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli omillari ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida davlatning ta'lim, ilm-fan, innovatsiyalar va biznes infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan siyosati kichik va o'rta biznes samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi [9–11].

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham O'zbekiston sharoitida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini keng tadqiq etganlar. Xususan, A. Vahobov tadbirkorlikni rivojlantirishda makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va qulay biznes muhitining o'rni yuqori ekanligini ta'kidlaydi [12]. Uning ilmiy ishlarida davlatning fiskal va investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Sh. Mustafakulov o'z tadqiqotlarida tadbirkorlikni rivojlantirishda institutsional islohotlar, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish va investitsion muhitni takomillashtirish masalalarini chuqur tahlil qilgan [13]. Olimning fikricha, hududlarning investitsion salohiyati va iqtisodiy faolligi davlat tomonidan yaratiladigan institutsional sharoit bilan chambarchas bog'liq.

K. Hakimov tadqiqotlarida hududiy iqtisodiy rivojlanish, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish masalalari asosiy yo'nalish sifatida yoritilgan. Olim kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi ulushini oshirishda mahalliy resurslardan samarali foydalanish va davlat dasturlarining izchil amalga oshirilishini muhim omil sifatida baholaydi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar asosan innovatsiyalar, institutsional muhit va raqobatbardoshlik omillariga ustuvor ahamiyat bergan bo'lsalar, mahalliy tadqiqotchilar O'zbekiston sharoitida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy resurslardan foydalanish va hududiy rivojlanish masalalariga ko'proq e'tibor qaratganlar. Biroq Qoraqalpog'iston Respublikasining o'ziga xos tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillari hamda rivojlanish istiqbollari kompleks baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur maqolada aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga, hududning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning iqtisodiy omillarini tizimli tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillari hamda rivojlanish istiqbollari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini institutsional iqtisodiyot, hududiy rivojlanish va tadbirkorlik nazariyalari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, taqqoslash, grafik tahlil, ekspert baholash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy xususiyatlari va iqtisodiy salohiyatini baholashda rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar asosiy axborot manbai sifatida xizmat qildi.

Empirik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari asos qilib olindi. Xususan, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 25 928 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 22 066 tasi (85 foizdan ortig'i) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan [3]. 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra esa faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 24 226 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 20 295 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar hudud iqtisodiyotida kichik biznesning yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, 2024-yil yanvar-noyabr yakunlariga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida ulgurji savdo aylanmasi 5,57 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,2 foizga o'sgan. Mazkur natijalar hududda biznes faolligi va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyati oshib borayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida muallif tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillarini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model hududiy rivojlanish omillarini yagona tizimda baholash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillarini baholash konseptual modeli¹

1 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Mazkur modelga ko'ra, davlat tomonidan yaratiladigan iqtisodiy va institutsional sharoitlar kichik va o'rta biznes faoliyatini rag'batlantiradi. Natijada ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, eksport salohiyati va hududning iqtisodiy raqobatbardoshligi ortib, barqaror hududiy rivojlanish ta'minlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hudud iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag'batlantirish natijasida iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ijobiy o'sish kuzatilmoqda.

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010–2025-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, sanoat mahsulotlari hajmi 2010-yildagi 205,4 mlrd so'mdan 2025-yilda 12 027,1 mlrd so'mga yetgan, ya'ni qariyb 58,6 baravar oshgan. Qurilish ishlari hajmi esa 147,5 mlrd so'mdan 8 191,5 mlrd so'mga yetib, 55 baravardan ortiq ko'paygan. Savdo hajmi ham izchil o'sib, 582,8 mlrd so'mdan 16 160,1 mlrd so'mga, xizmatlar hajmi esa 432,4 mlrd so'mdan 26 040,2 mlrd so'mga yetgan (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi²

Yillar	Sanoat (mlrd.so'm)	Qurilish (mlrd.so'm)	Bandlik (ming kishi)	Eksport (mln. AQSH. dol)	Import (mln. AQSH. dol)	Savdo (mlrd. so'm)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	Xizmatlar (mlrd. so'm)	Yuk tashish (mln. tonna)	Yuk aylanmasi (mln. tonna-km)	Yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi)	Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass. km)
2010-yil	205,4	147,5	412,7	11,3	21,7	582,8	1 000,7	432,4	10,0	315,3	74,2	2 133,0
2011-yil	259,5	275,1	426,8	16,1	37,6	765,2	1 314,6	571,3	9,8	336,8	86,0	2 380,2
2012-yil	338,4	405,3	426,2	12,8	115,1	1 009,2	1 804,8	762,2	11,0	361,8	92,4	2 600,5
2013-yil	533,1	529,1	450,2	19,5	101,8	1 391,2	2 091,5	980,8	13,1	384,2	95,2	2 773,1
2014-yil	713,3	777,2	464,2	24,3	51,2	1 747,6	2 607,3	1 280,1	15,7	420,0	98,1	2 969,7
2015-yil	1 006,3	920,5	469,4	27,1	42,2	2 139,5	3 411,3	1 539,0	17,2	443,9	104,9	3 200,6
2016-yil	1 133,4	933,4	479,6	32,5	44,8	2 740,6	4 031,5	1 943,6	19,2	468,4	114,4	3 437,0
2017-yil	1 365,4	1 083,1	486,0	40,0	76,0	3 214,9	4 949,5	2 195,7	20,3	489,7	120,2	3 531,6
2018-yil	2 219,3	1 903,0	532,8	46,8	172,8	3 995,2	6 866,5	2 616,4	24,2	528,8	127,0	3 632,3
2019-yil	2 517,5	2 943,5	532,9	88,4	190,1	5 005,9	8 660,7	3 037,8	26,9	572,1	129,2	3 699,6
2020-yil	3 382,1	3 495,1	524,8	78,8	125,3	5 947,3	10 056,7	3 347,4	27,0	572,8	119,7	3 352,2
2021-yil	3 721,8	4 168,9	521,6	92,4	140,0	7 760,3	11 740,2	4 410,3	30,4	707,5	127,0	3 659,9
2022-yil	3 744,6	4 765,3	528,9	68,9	109,8	10 038,3	13 502,6	5 204,2	30,7	776,6	131,9	3 982,0
2023-yil	5 314,6	6 681,3	548,0	93,6	117,9	11 075,8	15 403,6	16 389,5	34,1	818,3	137,3	4 201,6
2024-yil	9 218,0	7 353,1	-	144,7	183,8	13 314,2	17 297,5	21 202,2	35,9	827,4	142,5	4 275,9
2025-yil	12 027,1	8 191,5	-	190,0	211,0	16 160,1	21 623,8	26 040,2	38,5	906,8	169,2	4 764,5

2 **Manba:** Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Shuningdek, eksport hajmi 11,3 mln AQSH dollaridan 190,0 mln AQSH dollariga, import hajmi esa 21,7 mln AQSH dollaridan 211,0 mln AQSH dollariga oshgan. Mazkur ko'rsatkichlar kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki tobora kuchayib borayotganini tasdiqlaydi.

Hududda kichik biznesning makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2024-yilda kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 65,8 %, qurilishdagi ulushi 86,0 %, bandlikdagi ulushi 75,1 % ni tashkil etgan. 2025-yilda esa sanoatdagi ulushi 41,3 % gacha oshgan. Bu esa kichik biznesning hudud iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, statistik ma'lumotlar kichik biznesning sanoat tarmog'ida barqaror rivojlanish dinamikasini ham namoyon etadi. Xususan, sanoatda kichik biznesning ulushi 2017–2019-yillardagi o'zgarishlardan so'ng 2023–2025-yillarda tiklanish jarayonini bosib o'tib, 41,3 % ga yetgan. Bu holat sanoat korxonalarining tarkibiy o'zgarishlari hamda davlat tomonidan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash siyosatining ijobiy natijalarini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni, eng avvalo, qurilish va xizmatlar sohasida yuqori sur'atlarda rivojlanayotganligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, sanoat va eksport yo'nalishlarida kuzatilayotgan o'sish ushbu sohalarning rivojlanish salohiyati keng ekanligini namoyon etadi. Bu esa ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik va o'rta biznes hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar natijasida kichik biznesning sanoat, qurilish, savdo, xizmatlar va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, qurilish va xizmatlar sohasida kichik biznesning yuqori ulushi ushbu tarmoqlarda yaratilgan qulay institutsional va iqtisodiy sharoitlarning ijobiy samarasini namoyon etmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar sanoat va eksport yo'nalishlarida mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ham ko'rsatdi. Bu esa ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- kichik va o'rta biznes subyektlari uchun uzoq muddatli va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish hamda investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;
- hududning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish;
- raqamli texnologiyalar, elektron tijorat va zamonaviy boshqaruv usullarini kichik biznes faoliyatiga keng joriy etish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish;
- biznes infratuzilmasini rivojlantirish, logistika va transport xizmatlari sifatini yaxshilash hamda tadbirkorlar uchun "yagona darcha" tamoyili asosidagi davlat xizmatlarini yanada takomillashtirish;
- hududning tuman va shaharlari kesimida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, ularni baholashning zamonaviy indikatorlar tizimini joriy etish hamda boshqaruv qarorlarini statistik tahlillar asosida qabul qilish.

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy omillarini yanada takomillashtirish hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ishlab chiqilgan konseptual yondashuv va amaliy takliflar hududda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>



3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi. Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi. Nukus, 2026.

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi. Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da). Nukus, 2026.

5. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.

6. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.

7. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990.

8. Storey D.J. Understanding the Small Business Sector. London: Routledge, 1994.

9. Baumol W.J. The Free-Market Innovation Machine: Analyzing the Growth Miracle of Capitalism. Princeton University Press, 2002.

10. Romer P.M. Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 1990. Vol. 98(5). pp. 71–102.

11. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development. Journal of Monetary Economics, 1988. Vol. 22(1). pp. 3–42.

12. Vahobov A.V. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida barqaror iqtisodiy o'sish muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.

13. Mustafakulov Sh.A. Hududlarda investitsion muhitni takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. – Toshkent, 2020.

14. Hakimov K. Hududiy iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>